

O`ZBEKISTONDA ETISHIB CHIQQAN MAHALLIY RASSOMLAR VA ULARNING IJODIY FAOLIYATLARINING O`ZIGA HOS HUSUSIYATLARI

Amanullayev Abdinabi

Namangan davlat universiteti

Tasviriy va amaliy san`at kafedrasip.f.n. professori

Annotatsiya: Respublikamiz rassomlari bu davrdan boshlab, barcha ko`rgazmalarda faol ishtirok etib, san`atimiz ta`sirchanligini ortib borayotganini namoyish ettilar. Bizning rassomlar ko`plab ko`rgazmalarda qatnashdilar. 60-70 yildan boshlab, o`zbek san`ati yangi pog`onaga qadam qo`ydi. Bu davrda fagat keksa rassomlar ijodidagina emas, balki yoshlar ijodida ham yangi ifoda vositalarini izlash, asarlarini talqin etishda uning emotsional tomoniga e`tibor berish kuchayganligi yaqqol ko`zga tashlandi.

Kalit so`zlari: Kompozitsiya, ritm, peyzaj, plener, Perspektiva, ob`yekt, kolorit, kontrast, simmetriya, asimmetriya.

Iskandar Ikromov 1904 yil aprelda Toshkentda oddiy xizmatchi oilasida tavallud topgan. Iskandar Ikromov yetti yoshga tolganda yangi usuldagi "Namuna" maktabida o`qiy boshladi. Bu maktabda umumiy ta`lim fanlari qatori rasm (tasviriy san`at ham o`qitiladi). Maktabda rasm o`qituvchisining o`z ishiga sidqidildan munosabati yosh Iskandarga kuchli ta`sir etadi. O`qituvchi faqat rasm darsi bilan chegaralanib qolmasdan, darsdan so`ng bolalarni ochiq havoga olib chiqar va u yerda e`tiborga loyiq ko`rinishlarni chizdirar, san`at muzeylari va ko`rgazmalariga olib borib, san`atga qiziqish uyg`otishga harakat qilardi. Uning bu harakatlari natijasida Iskandar Ikromovda rassom bo`lish ishtiyoqi paydo bo`ldi. 1922 yilda uning otasi Iskandarning rassom bo`lishida qarshilik ko`rsatganligi sababli, u uyidan ketib Turkiston o`lka badiiy maktab-internatida o`qiy boshladi. Iskandar badiiy maktabda o`qib yurgan paytlaridayoq, klub, kutubxona, choyxona devorlariga rasmlar chizgan edi. Bir yil o`tar-o`tmas, u "Bolalar dunyosi" va "Mushtum" jurnallarida o`z rasmlari bilan qatnasha boshladi. Iskandar Ikromovning san`at sirlarining egallashga harakati shunday jiddiy tus oldiki, natijada rassomchilik maktabida talabalarga berilayotgan bilimlar uni qanoatlantirmay qoldi. Natijada U Sankt-Peterburgdagi Badiiy san`at texnikumiga o`qishga kirdi va u yerda 1925-1929 yillar mobaynida V.S.Svarog va N.V.Levitskiylardan san`at sirlarini o`rgandi. Bu davrda bir yo`la u o`qituvchilik kursiga ham qatnashib, muallimlik sirlarini ham o`rgandi. Natijada Iskandar Ikromov tasviriy san`at uslubchisi diplomini olishga muvaffaq bo`ldi.

Rassom 1929 yilda O`zbekistonga qaytib keldi. 1930 yilda "Alanga" jurnalida tasviriy san`at uslubiyotiga oid maqolalar e`lon qildi. Samarqanddagi erkaklar va ayollar pedagogika texnikumlarida tasviriy san`atdan dars berdi. 1932 yilda uning "Rasm o`rgatish qo`llanmasi" nashr etildi. Bu kitobda rassomning "Maorif va o`qituvchi", "Alanga" kabi jurnallarda chop etilgan uslubiy yo`l-yo`riqlari jamlangan edi. Qo`llanmada tasviriy san`at atamaları lug`ati ham bor edi. 1933 yilda Iskandar Ikromovning "Kitob va jurnallar qanday nashr etiladi" nomli foto montaji, 1935 yilda "Harflarni yozishni o`rgan" nomli qo`llanmasi chop etildi. O`tgan asrning 30-yillarida Iskandar Ikromovning o`qituvchilik, targ`ibot va tashviqot ishlari bilan birga ijodiy faoliyati ham kengaydi. Uning dastlabki muvaffaqiyatli ishlaridan biri yozuvchi N.Safarovning "Unitilmas kunlar" kitobiga ishlangan illyustratsiyalari edi. Bu illyustratsiyalarda rassom 1916 yilgi milliy ozodlik harakatini ko`rgazmali tarzda ochib berishga harakat qilgan. O`zbekistonda nashr etilgan kitoblarda naqshli bezaklarni qo`llashni ilk bor Iskandar Ikromov boshlab bergan. Rassom shu uslubda. A.S.Pushkinning she`riy to`lamlarini, "O`zbek sovet adabiyoti", "O`zbek xalq

qo`shiq`lari” to`plamlarini, Alisher Navoiyning “Xamsa” asarini badiiy bezadi. Bu ishlar o`sha davrdagi kitob bezagida yangicha milliy uslubning paydo bo`lganligini bildirar edi. 1943 yilda “O`zdavnashr”da chop etgan P. Lejnevning “Qonxo`r Adol`f” kitobining badiiy bezagini rassom ishlagan edi. U urush yillarida afishalar, plakatlar, taklifnomalar, faxriy yorliqlar, ko`krak nishonlari, taqvimlar bezashda ham faol ijod qildi. Urush yillarida ham Alisher Navoiy asarlarini nashr etish ishlari davom etdi. Bu nashrning bezagi (muqova, titul, bosh bezak, yakuniy bezak, illyustratsiyalar) Iskandar Ikromov tomonidan tayyorlandi. Hamid Olimjonning “Tanlangan asarlar” kitobida ifodalangan majnuntol va nihol tasvirlari lirik kayfiyat baxsh etadi. Iskandar Ikromovning ikkinchi jahon urushi davridagi ijodi katta siyosiy va badiiy ahamiyat kasb etdi. Fidoiy rassomlarning bu xizmatlari hisobga olinib, 1944 yilda unga O`zbekiston xalq rassomi unvoni berildi. 1948 yilda buyuk mutafakkir va ko`p qirrali olim-matematik, astronom, geograf va tarixchi Abu Rayhon Beruniyning 900 yillik yubileyi nishonlandi. Shu munosabat bilan uning chop etilgan ishlari bezagini bajarish ham Iskandar Ikromov zimmasiga tushadi va bu mas`uliyatli vazifani rassom yuksak saviyada amalga oshiradi. Iskandar Ikromovning bu ishlaridan qoniqish hosil qilgan O`zbekiston Fanlar Akademiyasining rahbariyati Akademiya nashriyotida chop etiladigan olim va yozuvchilarning asarlarini bezatishni unga ishonib topshiradigan bo`ldi. Fanlar Akademiyasining bu topshiriqlari izchil ravishda yuqori darajada bajarildi. Iskandar Ikromovning bora-bora O`zbekiston rassomlari orasidagi obro`-e`tiborining oshishi uni O`zbekiston rassomlar uyushmasi raisligiga saylanishiga omil bo`ldi. Iskandar Ikromov Respublika ijodkorlar uyushmasini 1959-1965 yillar davomida boshqardi. 1960 yilda esa u O`zbekiston Oliy Kengashi deputatligiga saylandi. 1960 yilga kelib, Alisher Navoiyning to`rt jildli “Lirika” she`rlar to`plami, “Xitoy xalq ertaklari” to`plamiga va boshqa bir qator grafik ishlari uchun rassom xukumat tomonidan munosib taqdirlandi. Iskandar Ikromov bezagan kitoblar Germaniyaning Leyptsig shahrida 1959 yilda o`tkazilgan xalqaro kitob ko`rgazmasida maxsus diplom va medal bilan mukofotlandi. Rassomning Ibn Sino, Beruniylarning o`zbek va rus tillarida nashr etilgan kitoblari, ko`p jildli asarlar to`plamlari, “O`zbek xalq musiqasi to`plami”, Oybekning “Navoiy” romani uchun ishlagan illyustratsiya va bezaklari Iskandar Ikromov ijodining butun mohiyatini belgilab bergan asarlari qatoriga kiradi.

Iskandar Ikromov O`zbekistonda kitob grafikasining taraqqiyotiga ulkan hissa qo`shgan betakror rassom sifatida tasviriy san`at tarixidan munosib o`rin olgan.

O`rol Tansiqboyev – mashhur manzarachi rassom, rangtasvir ustasi. U 1904 yil 4 mayda Toshkent shahridagi qozoq millatiga mansub oilada dunyoga keladi. O`rol Tansiqboyev tavallud torgan oila serfarzand va ota-onasi xokisor insonlar edi. Otasi Tansiqboy ota juda erta dunyodan o`tadi, onasi Xalifa ona va ularning katta o`g`li Nurmonga besh o`g`il, uch qiz bo`lgan bu oilani tebratish vazifasi yuklanadi. Rassomning yoshlik yillari qiyinchilik davrlariga to`g`ri keladi. Shunday bo`lishiga qaramasdan, u juda yoshligidanoq rasm chizishga astoydil qiziqqanligi tufayli tabiatning sehrli olamini kuzatar va uni mahliyo bo`lib tasvirlashga intilar edi. Ilk bor maktabda rasm saboqlarini Yeroslav Fyodorovichdan o`rgandi.

O`rol Tansiqboyev yoshligidan san`atga qiziqib, Toshkentdagi badiiy muzey qoshidagi to`garakka (studiya) qatnab, dastlabki saboqlarni mashhur rus rassomi Repinning shogirdi N. Rozanovdan olgan, tasviriy san`at sirlarini o`zlashtirishda uning ta`siri katta bo`lgan. To`garakka qatnab yurgan yillaridayoq u ko`plab kompozitsiyalar ishladi. Ko`rgazma zallari, O`zbekiston tasviriy san`at muzevining eksronantlari O`rol Tansiqboevning eng sevimli maskani edi. Shuning uchun ham u ko`rgazma va muzey zallarida kartinalarini kuzatish, ularni sir-asrorlarini o`rganish orqali o`z yo`lini, o`z ovozi torishga intildi. 1927 yilda yaratilgan “Rassom Akrom Toshkanboyev portreti” dastlabki ijodiy yutuqlarining namunasidir. Bu asar uning ilk ishlaridan biri edi. Studiyyada

tasviriy san`at borasida olgan bilimlaridan ko`ngli to`lmagan O`rol Tansiqboyev Rossiyaning Pen`za shahridagi badiiy-pedagogika bilim yurtiga o`qishga kirdi. U yerda I.Repinning shogirdlari I.Goryushkin-Sopokopudov va N.Petrovdan tasviriy san`at sirlarini o`rgandi. Ayniqsa, unga Rossiyaning mashhur rassomlarining Pen`za muzeyidagi tasviriy san`at asarlari katta ta`sir ko`rsatdi. Ularni o`rganish va ayrimlaridan nusxalar ko`chirish O`rol Tansiqboyev uchun katta maktab vazifasini o`tadi. XX-asrning 20-30 yillardagi ijodiy izlanishlar, hamkorlikda olib borilgan mashaqqatli mehnatlar, ayniqsa, ustoz rassomlarning faoliyatlarini o`rganish O`rol Tansiqboyevga samarali ta`sir qildi. 1934 yilning avgust oyida Moskvada o`tkazilgan o`zbek rassomlari ko`rgazmasi uning ijodiy namunalarning o`ziga xos ajralib turishini yana bir bor ko`rsatdi. Bu yerda rassomning “Ona ovulda”, “Ko`chmanchilar manzili”, “Meva terish”, “Ozod ayol” kabi asarlari ko`chilikni o`ziga jalb qildi. Keyingi izlanishlar, tabiat bag`rida qilingan ijodiy mehnatlar O`rol Tansiqboyevni tabiat manzarasiga oshno qila boshladi. Rassom endi butunlay manzara janriga o`zini bag`ishlar ekan, san`atning sirli cho`qqilarini egallayotganini ko`ramiz. Bu o`rinda, ayniqsa, “Sirdaryo” (1935 yil), “Burchimulla” (1936), “Bog`iston” (1937), “Tog` manzarasi” (1937), “Bahorgi ishlar” (1938), “Orol dengizi” (1939) va boshqa bir qancha tabiat manzarasini aks ettirgan eskiz va etyudlari uning mahorat cho`qqisi sari chiqayotganidan dalolat beradi.

O`rol Tansiqboyevning mustaqil ijodi O`zbekistonda milliy san`atning tiklanish davriga to`g`ri keldi. U o`z ijodining dastlabki yillarida anchagina asarlar yaratgan bo`lsa-da, biroq uning asosiy ijodi 1940 yildan so`ng boshlandi. U O`zbekiston delegatsiyasi tarkibida ikkinchi jahon urushi bo`lgan joylarga borib, u yerdan katta ta`assurotlar bilan qaytdi. Natijada “Ozod etilgan yerlarda”, “Mal`unning yo`li”, “Partizan ayol”, “Havo jangi” kabi bir qator asarlar yaratdi.

1943 yilda unga O`zbekistonda xizmat ko`rsatga san`at arbobi unvoni berildi.

Urushdan keyingi yillarda O`rol Tansiqboyev katta o`lchamdagi asarlar yarata boshladi. Bunday asarlar qatoriga “Sholi hosilini yigib olish”, “Paxtani sug`orish”, “Jonajon o`lka”, “Issiqko`l oqshomi”, “Tog`da” kabilarni kiritish mumkin.

O`rol Tansiqboyev o`zining yangi-yangi manzaralarini yaratgan ekan tabiatimizga xos rang majmualarining xarakterini topishga muvaffaq bo`lgan. Masalan, rassomning 1947 yilda ishlangan “Bahor” nomli asari to`laqonli, sermazzun, bo`yoqlarga burkangan tabiat manzarasini namoyish qiladi. Yangi yaratilayotgan manzaralarda keng bo`shliqning juda ustalik bilan tasvirlanishi, bu bo`shliq bag`ridagi tabiatning nozik va nafis sirlari o`ta mahorat bilan aks ettirilayotganligining guvohi bo`lamiz. Bu o`rinda, ayniqsa, “Issiqko`lda kech”, “Taxiatosh” (1951), “Qoraqum suv ombori” (1957) kabi asarlari diqqatga sazovordir. O`rol Tansiqboyev buyuk rassom bo`lishining sababi shundaki, u bahorning oshuftasi bo`lish bilan birga ona tabiatga shunday mehr qo`ydi.

Rassom ijodining gullagan davrida yaratgan asarlaridan yana biri “O`zbekistonda mart” deb ataladi. Rassomning bu asarida bahorgi quyosh taftidan bahra ola boshlagan maysazorlar, daryoga olib boruvchi so`qmoq, daryo qirg`og`ining baland-rastliklari, gilos gullagan daraxtlar, o`zaniga sig`may oqayotgan daryo, daryoning narigi tomonidagi tepaliklar, qori erib tugamagan tog`lar, quyosh nuriga hamohang tusga kirgan bulutlar kishiga zavq bag`ishlaydi.

O`rol Tansiqboyev o`zining urushdan keyingi ijodida, Respublikada qurulayotgan kanallar, suv omborlari, elektrostansiyalar, neft` qidiruv ishlari bilan hamohang tabiat manzaralarini tasvirlashga harakat qiladi. Natijada u “Tog`da bahor”, “Qayroqqum GESi tongi”, “Angren vodiysi” kabi betakror asarlar yaratdi.

Rassomga shuhrat keltirgan asarlardan biri “Qayroqqum GESi tongi” deb ataladi. Bu asarda, yuqorida turib kuzatilgan elektrostansiyasi va suv ombori lirik kayfiyatda tasvirlangan bo`lib, undagi qurilishlar tabiat bilan uyg`unlashib ketgan. Surat markazidagi erta tongda zangori tusga kirgan elektrostansiya to`g`onicheti ko`rinmas ulkan dengizni

mahkam tutib turgandek tuyiladi. Asarni kuzatgan odam sahroga jon bag'ishlovchi mo'jizakor manzaraning sehrli olamiga kirib qoladi. Unda olislarga bo'y cho'zgan musaffo dengiz qariga ko'milgan shodlik va nafasatga boy tong yorishib kelayotganligini qalbdan his etasiz. Bu suratda tasvirlangan narsalar juda oddiy, lekin sehrlidir. Chunki, dengiz, osmon va kengliklarning bepoyonligi, koloritning jozibadorligi, mayinligi kishini o'ziga tortadi. Manzarada suv, cho'l, tog' va fazo yirik hamda umumlashgan holda berilganligi sababli asar nihoyatda salobatli ko'rinadi. O'rol Tansiqboyevning ijodiy yo'nalishini belgilab beruvchi asarlardan yana biri "Tog'dagi qishloq. Oqshom" manzara sidir. Asar tik holdagi kompozitsiyadan iborat. Unda Respublikamizning to'g'lik go'zal qishloqlaridan biridagi kechki payt tasvirlangan. Asarda uzoqlarda yastanib yotgan moviy tog'lar, chiroqlarini endigina yoqqan xonadonlar, qishloq yonidan oqib o'tgan soy, kishilar va bolalar tasviri ko'zga tashlanadi. Kishilar va bolalar tasviri manzaraga hamohang tarzda unga hayotiylik bag'ishlaydi. Suratda ko'rinib turibdiki, kech kirib, oqshom tushgan va tog' choqqilari-yu, qoya toshlarni tun o'z qaroga tortmoqda. Tepaliklardan tushib kelayotgan qo'ylarning ma'rashi, soyning shovullashi, chigirtkalarining chirillashi eshitilayotgandek tuyiladi. Kechki yog'du bag'rida, uning zavqining tortayotgan bolalar tasviri, u yer, bu yerlarda ko'zga tashlanadi. Kech kirib, viqorli tog'lar orasiga quyosh berkingan, uning o'rniga oy chiqmoqda.

O'rol Tansiqboyevning diqqatga sazovor asarlaridan yana biri 1955 yilda yaratilgan "Sirdaryo" nomli manzara bo'lib, u Moskvadagi Tret'yakov galeriyasida saqlanadi. 1960 yillarda rassom "Angren – Qoqon yo'li", "Tog' yo'li", "Angren daryosi", "Tog'da", "Xumson oqshomi", "Chorvoq qurilishida" kabi bir-biridan jozibali asarlar yaratdi. Umrining oxirida yaratgan "Kuz tongi", "Mening qo'shig'im", "Chordaryo suv omborida" kabi asarlari esa rassom ijodining cho'qqilari bo'lib qoldi.

O'rol Tansiqboyev ijodiga xos xususiyatlar ona-Vatanga muhabbat, uni ulug'lashdir. Rassom asarlarida tabiatni keng qamrovli va osmono'par tog'lar, uzoqlarga ketgan ilonizi yo'llar, moviy osmon, ko'k bilan tutashib ketadigan go'zal hayotiy manzaralar tasvirlanadi. Ayrim hollarda, kishilar tasvirlari ham yorqin ranglarda ifodalanadi. O'rol Tansiqboyev katta hayot yo'lini bosib o'tdi. U 1934 yillardayoq Maskva va Finlandiyada o'tkazilgan tasviriy san'at asarlari ko'rgazmasida o'z ishlari bilan qatnashdi. Rassom 1958 yilda Bryusseldagi xalqaro ko'rgazmada "Qayroqqum GESi" asari bilan qatnashib, xalqaro kumush medal bilan taqdirlandi. Vatanimiz san'atini rivojlantirishdagi xizmatlarini taqdirlab, rassom hukumatimizning bir qator orden va medallari bilan mukofotlandi. U O'zbekiston xalq rassomi, Rossiya badiiy akademiyasining haqiqiy a'zosi edi.

Rassomning bir qator asarlari Moskvadagi Tret'yakov galereyasida, Sharq xalqlari san'at muzeyida, Qozog'iston, Qizg'iziston, Tojikiston, Moldova, Latviya, O'zbekiston san'at muzeylaridan o'rin olgan. O'rol Tansiqboyev 1974 yilda vafot etadi. U birinchilar qatori manzara janrida ijod qilib, san'atimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan musavvirlardan edi. U o'z asarlarida O'zbekistonning go'zalligini, uning jozibasini kuylaydi, O'rol Tansiqboyevning asarlari yana uzoq yillar bizni va kelajak avlodlarni ham Vatanga muhabbat, go'zallikdan zavqlanishga chorlab turishi shubhasiz.

Chingiz Axmarov. Musavvir Chingiz Axmarovning nomi ham O'zbekiston tasviriy san'atida haqli ravishda faxrli o'rinlardan birini egallaydi. Bu beqiyos ulkan mo'yqalam sohibining ijodi o'zbek tasviriy san'atining ajralmas bir qismi sifatida keng xalq ommasining e'tirofiga sazovor bo'ldi. Bolajak rassom 1912 yilda Rossiyaning Troitsk shahrida tug'ilgan. 1920 yillarning oxirida Ahmarovlar oilasi dastlab Qarshiga, so'ng u yerdan Samarqandga ko'chib keladilar. Samarqandga kelgach, Chingiz Ahmarovning qarshisida go'yo u bolalaik chog'idan buyon orzu qilib yurgan afsonaviy shahar darvozasi lang ochilgandek bo'ladi. Keyinchalik u Perm' badiiy texnikumida tahsil olar ekan, barcha ta'til kunlarini Samarqandda o'tkazadi. Sharqning betakror jihatlarini mujassam etgan

Samarqandning qaynoq, suronli hayoti, uning bir-biridan yorqin ranglarga to'lib-toshgan bozor va choyxonalari, me'morchilik yodgorliklaridagi boy naqshlar va bo'yoqlar, xalq san'atining bepoyonligi va rang-barangligi Chingiz Ahmarovning ijodiy o'y-xayollariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Chingiz Ahmarov Toshkentga kelib A.Volkov, N.Karaxan, O'.Tansiqboyev singari har biri yorqin, betakror individuallikka ega bo'lgan rassomlar bilan do'stlashadi. Ayniqsa, o'zbekistonlik koloristlar etakchisi O'rol Tansiqboyevning ijodiy intilishlari uni o'ziga maftun etadi. Chingiz Ahmarov: "Menda O'rol Tansiqboyev asarlari katta ta'assurot qoldirdi. Uning asarlaridagi ehtiros va kasbiy mahorat kishiga bamisoli simfoniya deb ta'sir qiladi", - deb eslaydi. Chingiz Ahmarov 1935 yili Moskva rassomchilik institutiga o'qishga kiradi va u yerda bir yo'la aspiranturani ham bitirib chiqadi. Institutda u I.Grabar, V.Favorskiy, S.Shemyakin singari san'at ustalaridan ta'lim oladi. Chingiz Ahmarov asarlarida ko'pincha zamondoshlarimizning ijodkorlik ruhi bilan yashayotgan go'zal va yoqimtoy tabiati murakkab va nafis qiyofalarda tasvirlangan. O'zbekiston xalq rassomi Chingiz Ahmarov 1912 yilda Chelyabinsk viloyatining Troisk shahrida tug'ilgan. 1927-1931 yillarda Perm' tasviriy san'at texnikumida, 1942 yilda V. Surikov nomidagi Moskva Davlat badiiy institutida hamda 1948 yilda shu institut aspiranturasida ta'lim oldi. U san'atshunoslik nomzodi ilmiy darajasiga ega. Mehnat faoliyatini Toshkent shahrida, Xamza nomidagi San'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutida ilmiy xodimlikdan boshlab, so'ng Ben'kov nomidagi badiiy bilim yurtida o'qituvchi. O'zbekiston Rassomlar uyushmasi raisining muovini, Toshkent Politehnika institutida kafedra mudiri, Toshkent San'atshunoslik institutida professor lavozimlarida ishladi.

Ijodiy faoliyatini esa 1931 yili Samarqand shahrida boshlab, dastavval asosiy diqqat-e'tiborini portret janri va kitob suratkashligi sohasiga qaratdi. "Alpomish va Oybarchin" (1944), "Shirin" (1949), "Qizlar" (1949), "Mukarrama Turg'unboeva portreti" (1951), "Ganalik Qiz" (1958), "Afrikalik" (1958), "Rassom Rashid Temirov portreti" (1960), "A'lochi Zotova portreti" (1960), "Zulmatdagi ziyo" (1964), "Shoira Zulfiya portreti" (1964), "Raqqosa" (1964), Alisher Navoiy lirikasiga bag'ishlangan rasmlar turkumi (1966-1967), "Mushoira", "Behzod huzurida" (1966) kabi rang-barang mavzudagi rasmlar rassom mo'yqalamiga mansubdir.

Ch.Ahmarovning asarlarida ko'pincha zamondoshlarimizning ijodkorlik ruhi bilan yashayotgan go'zal va yoqimtoy tabiati murakkab va nafis qiyofalarda tasvirlangan. Uning suratkashlik asarlari orasida, ayniqsa "Studentlar" va "Ayol portreti" (1944), Indoneziyaga qilingan safarda chizilgan suratlar (1964), Sharqiy Afrika safarida chizilgan suratlar (1965), "Surmaxon" (1966) kabilar muvaffaqiyatli chiqqan. Kitob suratkashligi sohasida rassomning "Mening yoshligim", Sh.Sulaymonovning "Li Chu" (1934), "Oybekning Navoiy" romani (1951)ga, "Ravshan eposi" (1958), M. Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" (1964) tragediyasiga ishlagan rasmlari diqqatga sazovordir. 1968 yilda Alisher Navoiyning 525 yillik yubileyi nishonlandi. Yubileyga tayyorgarlik ishlari esa 1966 yildan boshlangan edi. Alisher Navoiy yubileyini o'tkazuvchi hukumat komissiyasi va A. Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyini tashkil etuvchi badiiy kengashning a'zosi sifatida Chingiz faol ishlab, mumtoz shoir haqida bir necha yangi nodir asarlar yaratdi. Shoirning "Xamsa" asaridagi "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor" dostonlari asosida monumental devoriy suratlar chizdi. Umuman, monumental devoriy suratlar chizish rassom ijotida alohida o'rin tutadi. Bu sohada unga teng keladigan ijodkorni topish qiyin, albatta. Ch.Ahmarov O'zbekistonda sharqona milliy rassomlik san'atini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan ulkan san'atkorlardan.

U qadimgiminiatyura an'alarini davom ettirib, zamonaviy uslublar bilan boyitgan holda o'ziga xos yangi badiiy maktab yaratdi. Respublikamizdagi ko'zga ko'ringan o'nlab hashamatli binolari monumental devoriy suratlar bilan bezadi. Jumladan, Alisher Navoiy nomidagi O'zbek Davlat akademik Katta teatri, Adabiyot muzeyi, Abu Rayhon Beruniy

nomidagi Sharqshunoslik instituti, hamza nomidagi San'atshunoslik instituti, Toshkent metrosining rassom kinosan'ati sohasida ham ijod qilib, "O'zbekfilm" kinostudiyasida suratga olingan "Ulug'bek yulduzi", "Ikki dil dostoni" va boshqa filmlarga kiyim-kechak eskizlarini yaratdi, ko'plab yosh iste'dodli rassomlarga ustoz-murabbiylik qildi Alisher Navoiy bekati va boshqa inshootlar uning betakror san'ati bilan jilo topdi. Uning sermahsul va serqirra ijodiy faoliyati "O'zbekiston xalq rassomi" faxriy unvoni, Davlat mukofotlari va orden, medallar bilan taqdirlandi.

Unga "Tatariston xalq rassomi" faxriy unvoni ham berilgan. Ustoz san'atkor, professor - Chingiz Ahmarov 1995 yil 13 martda Toshkent shahrida vafot etdi.

Malik Nabiyeu-O'zbekiston xalq rassomi. San'at shunday bir mo'jiza ekanki, uni sevib bag'riga kirgan inson doimo O'zini yosh, navqiron sezib, mehnat qilib tolmas, O'zi sevgan mashg'uloti siz yashay olmas ekan. Tasviriy san'atga umr bo'yi ana shunday maftun bo'lib kelayotgan rangtasvirchi rassom Malik Nabiev 1916 yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Malik Nabiyeu - O'zbekiston xalq rassomi, professor. "Hayotda o'z qo'shig'ini topa olgan, uni qaytarilmas ohangda ko'pchilikka manzur qilib kuylay olgan san'atkorni baxtli desa bo'ladi",-deb ta'kidlagan taniqli rassom O'rol Tansiqboev. Rassom Malik Nabiev hayoti va ijod yo'lida O'. Tansiqboev ta'kidlaganidek, nafaqat o'z ovozigga, balki baxtiga ham erishgan ustoz san'atkor darajasiga ko'tarildi. U tajribali pedagog, uslubiyatchi olim sifatida ham tanildi. San'at shunday bir mo'jiza ekanki, uni sevib bag'riga kirgan inson doimo o'zini yosh, navqiron sezib, mehnat qilib tolmas, o'zi sevgan mashg'ulotisiz yashay olmas ekan. Tasviriy san'atga umr bo'yi ana shunday maftun bo'lib kelayotgan rangtasvirchi rassom Malik Nabiev 1916 yilda Toshkent shahrida tug'ilgan.

Malik Nabiev tasviriy san'atning ilk saboqlarini rassom Bahrom Hamdamiydan o'rgangach, ustoz maslahatiga binoan rassomlik bilim yurtiga o'qishga kiradi. 1937 yilda bilim yurtini imtiyozli diplom bilan muvaffaqiyatli tugatgandan so'ng esa shu yerda o'qituvchi bo'lib ishlay boshlaydi. O'sha yillardan boshlab san'at borasidagi mustaqil ijodiy yo'li boshlangan edi. U o'z asarlari bilan ko'rgazmalarda ishtirok etib keldi. Yoshligidan tarixiy mavzularga bo'lgan qiziqish va harakatlari zoe ketmadi. Vaqtlar o'tishi bilan rassomning tarixdan hikoya qiluvchi ranglavha, chizmatasvir va kichik kompozitsiyalari katta-katta polotnolarga aylandi. Malik Nabiev o'z asarlarida tarixiy voqealar mazmunini aniq ifodalashga harakat qiladi. Mo'yqalam sohibining asarlarida g'oyaviy jihatdan boy bo'lgan mavzulardan biri tarixiy siymolar obrazidir. Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning portreti 1972 yili har jihatdan mukammal ishlangan. Mutafakkir Beruniy obrazi rassomning bir necha yillik izlanishlari, portretning bir necha bor eskizlar va ranglamalarini ishlashi natijasida yuzaga kelgan. Shu tariqa asarning bir nechta, bir-biridan farq qiluvchi nusxalari yaratilgan. 1949 yili Al Beruniy vafotining 900 yilligi munosabati bilan olim portretini yaratish uchun konkurs e'lon qilinadi. Bu konkursda o'ttiz nafardan ortiq o'zbekistonlik va boshqa xalqlarning yirik rassomlari ishtirok etishadi. Shu tanlovda Malik Nabiev ham qatnashdi. Musavvirning asarlaridagi buyuk olim obrazi boshqa rassomlar tomonidan ishlangan namunalariga nisbatan to'laqonli, deb e'tirof etiladi. 1973 yilda esa Beruniy tavalludiga 1000 yil to'lishi munosabati bilan ikkinchi marotaba konkurs e'lon qilinadi. Rassom Malik Nabiev Beruniy obrazi ustida izlanishni davom ettirib va nihoyat ikkinchi marotaba ham konkurs g'olibi bo'ldi. Bu portret konkursdan so'ng YUNESKOning "Kur'yer" jurnali muqovasida va xorijiy mamlakatlarning ko'plab jurnal va gazetalarida hamda otkritka, marka, plakat tarzida bir necha bor nashrdan chiqarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Amanullaev, A. (2022). Specific Factors Of Comprehensive Study And Analysis Of The History And Culture Of The Uzbek People. *Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review* Issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(02), 1-4.
2. Amanullaev, A. A. (2022). Current Issues In The Training Of Future Teachers Of Fine Arts. *Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review* Issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(03), 1-3.
3. Абдимуминова, Д. А., & Амануллаев, А. А. (2018). Использование Традиций "Этики" Устоз-Шогирд"(Мастер и Ученик) На Занятиях Прикладного Искусства. *Novainfo. Ru*, 2(85), 203-206.
4. Abdumo'Minovich, A. A. (2023). Qadimda Ustalarining Shogird Tayyorlashda O'Ziga Xos Milliy Ananaviy Asoslari. *Journal Of Universal Science Research*, 1(5), 1440-1447.
5. Abdumo'Minovich, A. A. (2023). Bo'Lg'Usi Tasviriy San'At O'Qituvchilarini Tayyorlashda Hozirgi Davr Dolzarb Masalalari. *Journal Of Universal Science Research*, 1(5), 1423-1429.
6. Sodiq, Am (2022). Tasviriy San'At Asarlarida Kopozitsiyaning Baddiy Qimmatini Tahlil Va Tashrib Bera Va O'Quvchilarning Baddiy Idrok Haqidagi Bilimlarini Oshirish. *Xalqaro Jurnal Ijtimoiy Fan Va Interdisplinar Research* Issn: 2277-3630 Ta'Sir Faktori: 7.429 , 11 (03), 149-151.
7. Sodiq, A. M. (2023). Bolajak Tasviriy Sanat Oqituvchilarida Badiiy-Ijodiy Mahoratlarini Rivojlantirishda Manzara Janridan Foydalanish Usullari. *Journal Of Universal Science Research*, 1(5), 1430-1439.
8. Muhammad, A. (2022). Peculiarities Of The Scientific Study Of The Relationship Between Composition And Color In The Genre Of Landscape. *Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review* Issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(02), 5-8.
9. Abdumo, M. A. O. G. L. (2022). Ochiq Havoda Insonlarni Turli Xolatlaridan Tasvirlar Bajarish Texnologiyalari. *Science And Education*, 3(9), 474-480.
10. Abdumo'Minova, D. A. Q. (2022). Talabalarga Tasviriy San'Atdan Mashg'Ulotlarni Tashkil Etishda Qalamtasvirning Nazariy Qonunlardan Foydalanish. *Science And Education*, 3(9), 467-473.
11. Dildora, A. (2022). Training Of Professionals With Positive Human Qualities In The Lessons Of Fine And Applied Arts In The Education Of The Modern Spirit. *International Journal Of Social Science & Interdisciplinary Research* Issn: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(03), 152-154.
12. Dildora, A. (2022). The Emergence Of Some Modern Problems In The Field Of Architecture In The Modern Construction Of Ancient Cities Rich In Historical Monuments And Relics. *Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review* Issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(02), 9-11.
13. Кизи, А. Д. А. (2023). Разработка Технологий Практического Обучения Учащихся Изобразительному Искусству. *Innovation: The Journal Of Social Sciences And Researches*, 1(4), 201-203.
14. Абдумуминов, М. А. Ў. (2022). Развитие Творческих Способностей Студентов Путем Изучения Произведений Современных Узбекских Художников-Живописцев. *Innovation: The Journal Of Social Sciences And Researches*, 1(2).
15. Sadiq, A. M. (2024). Studying The Stages Of The Historical Development Of The Landscape Genre And Its Importance In The Development Of The Artistic And Creative Skills Of Future Visual Arts Teachers. *International Journal Of Research In Commerce, It, Engineering And Social Sciences* Issn: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 18(01), 28-32.

16. Abdinabi, A. (2024). The Compositional Structure Of The Works Of Artists Who Created Still Life In Painting Is Their Scientific Analysis. *International Journal Of Research In Commerce, It, Engineering And Social Sciences* Issn: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 18(01), 17-21.
17. Қизи, А. Д. А. (2023). Разработка Технологий Практического Обучения Учащихся Изобразительному Искусству. *Innovation: The Journal Of Social Sciences And Researches*, 1(4), 201-203.
18. Dildora, A. (2024). Teaching Composition To Students In Fine Art Educational Institutions And Developing Artistic And Creative Thinking As A Pedagogical Problem. *International Journal Of Research In Commerce, It, Engineering And Social Sciences* Issn: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 18(01), 22-27.
19. Ubaydullayev, M. A. (2023). Development And Popularization Of Methods Of Teaching Students Of The Direction Of Fine Arts Through Information Technology. *Евразийский Журнал Академических Исследований*, 3(2), 166-169.
20. Убайдуллаев, М. А. (2022). Проблема Профессиональной Компетентности В Подготовке Будущих Учителей Изобразительного Искусства В Интерпретации Зарубежной Педагогике. *Science And Innovation*, 1(Jssr), 177-182.
21. Pulatov, D., & Ubaydullaev, M. (2023). Formation Of New Creative Directions In Modern Fine Art Of Uzbekistan. *Solution Of Social Problems In Management And Economy*, 2(2), 34-39.
22. Saymamutovich, P. D., & Akhmadjonovich, U. M. (2023). The End Of The 20Th Century The Beginning Of The 21St Century Uzbekistan Magnificent Sculpture. *Open Access Repository*, 4(2), 102-107.
23. Убайдуллаев, М. А. (2022). Композиция Асосларининг Тасвирий Санъат Дарсларида Кулланилиши. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences*, 2(12), 329-332.
24. Abdinabi, A. (2024). The Compositional Structure Of The Works Of Artists Who Created Still Life In Painting Is Their Scientific Analysis. *International Journal Of Research In Commerce, It, Engineering And Social Sciences* Issn: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 18(01), 17-21.
25. Abdinabi, A., & Rayhona, T. (2024). Specific Characteristics Of The Foundations Of Artistic Creativity In The Types And Genres Of Fine Art. *Web Of Teachers: Inderscience Research*, 2(3), 219-228.